

**YANGILANGAN KONSTITUTSIYAMIZDA TA'LIM OLİSH
HUQUQINING KAFOLATLARI**

Farxutdinova Matluba Amanbaevna

Toshkent viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ta'lism olish huquqi mamlakatimizning Konstitutsiyasiga asosan inson va fuqarolarning asosiy ijtimoiy huquqlaridan biridir. Inson kamolatining negizi bo'lgan ilm olishga bo'lgan ehtiyoj barcha davrlarda ham eng muhim ehtiyojlardan biri bo'lgan. Ilm olishga bo'lgan huquqning oliv qonun darajasida kafolatlanishi, himoya qilinishi har qanday davlat uchun ham eng muhim huquqiy kafolatlardan biridir. Ushbu maqolada yaqinda amalga kirgan yangilangan Konstitutsiyamizda inson va fuqarolarning ta'lism olish huquqining kafolatlari xususida, kiritilgan yangi huquqiy normalar haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: huquq, kafolat, ta'lism olish huquqi, ta'lism turlari, uzluksiz ta'lism, maktabgacha ta'lism, umumiy o'rta ta'lism, inklyuziv ta'lism, akademik erkinlik

Konstitutsiya har bir davlat taraqqiyotining poydevori bo'lgan huquqiy, siyosiy hujjat bo'lib, mamlakatning Asosiy qonuni hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan kundan buyon mamlakatiizda inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarining tom ma'nodagi kafolati sifatida xizmat qilib kelmoqda. Unda xalqimizning eng muhim orzu – intilishlari, maqsad va istaklari huquqiy asoslantirilgandir. Mustaqillik yillarida asosiy qonunimiz demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo qilishning siyosiy va huquqiy asosi sifatida ulkan nufuzga ega bo'ldi va dunyo hamjamiyatining e'tirofini qozondi.

O'zbekiston bugun taraqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'yemoqda. Inson qadri tobora ulug'lanadigan, adolatli va xalqparvar davlat barpo qilishga bo'lgan intilishlarimiz oldimizga qo'ygan maqsad va intilishlarimizga mos huquqiy asos yaratilishi ehtiyojini keltirib chiqardi. Yurtboshimiz ta'birlari bilan aytganda, "Bosh maqsadimiz – har bir yurtdoshimiz ushbu hujjatni mening Konstitutsiyam deb faxrlanadigan mukammal darajaga olib chiqishdir", shu nuqtai nazardan qaraganda, yangilangan konstitutsiyani qabul qilinishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar insonning sha'ni, qadr – qimmati, huquq va erkinliklari barcha sohalarda ustuvor ahamiyat kasb etishini namoyon qildi.

Yangi Konstitutsiya loyihasining referendumdan oldin keng jamoatchilikning misli ko'rilmagan xajmda katta qatlamini e'tiborini tortishi va 220 mingdan ortiq takliflar kelib tushgani asosiy qonunimizning chinakamiga xalq Konstitutsiyasi bo'lib yaralganligi va uning qabul qilinishining referendum orqali ta'minlanganligi mamlakatimiz fuqarolarining qaysi kasbda, qanday lavozimda ishlashidan qat'iy nazar

har birimiz uchun alohida qadrli ekanligini ko‘rsatdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda 100 dan ortiq yangiliklar, huquqiy davlat prinsipini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan konstitutsiyaviy kafolatlar belgilab qo‘yildi. Uning mazmunan boyishi, huquqiy normalarining ortishi ayniqla mamlakatimizda inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini to‘laligicha qondirilishi, inson qadrini to‘laligicha ta’minalash huquqiy kafolati sifatida namoyon bo‘ldi. O‘zgarishlar juda ko‘p, har bir o‘zgarish yurtimizda 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan konstitutsiyamizning amal qilishi zamirida tug‘ilgan, xalqaro huquq normalari talablariga mos keladigan ehtiyojlarni qondirish manbai sifatida kiritilgan. Bu borada ayniqla ijtimoiy adolat prinsiplariga oid normalarning mustahkamlanishi, sifatli ta’lim va tibbiy xizmat ko‘rsatish borasida Konstitutsiyamizga kiritilgan o‘zgarishlar alohida e’tirofga munosib deb o‘layman.

Hech kimga sir emaski, ta’lim har qanday mamlakatning rivojlantirish orqali barqaror taraqqiyotini ta’minalaydigan omildir. Shu bois yangi konstitutsiyamizda mamlakatimizda inson va fuqarolarning sifatli ta’lim olishi kafolatlaydigan konstitutsiyaviy kafolatlar ifodasini topdi. O‘z o‘rnida amaldagi Konstitutsiyamizda ta’lim olish huquqini kafolatlovchi huquqiy norma yo‘qmidi? degan savol tug‘iladi. Konstitutsiyamizning 41 – muddasida inson va fuqarolarning ta’lim olish huquqlari konstitutsiyaviy norma darajasida mustahkamlab qo‘yilgan edi. Kiritilgan yangi normalar ushbu konstitutsiyaviy qoidani yanada mustahkamladi, ta’limning boshqa shakllarini, ta’lim turlarini qamrab oldi. Asosiy qonunimizning 2 – bo‘limi 9 – bobi 50-53- moddalarida O‘zbekistonda inson va fuqarolarning maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rtta ta’lim, oliy ta’lim olishga bo‘lgan huquqlari, ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod qilish, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqlari belgilab qo‘yilgan.

Bilim insonni komillikka ko‘tarish bilan birga, u yashayotgan jamiyat va mamlakatni ham yuksaltiradi. Insonda bilim va intellekt sifatli ta’lim natijasida shakllanadi. Shu bois davlat fuqarolarning ta’limga oid huquqlarini amalga oshirishni o‘z zimmasiga oladi. Konstitutsiyamizning 50 – muddasida davlatning ushbu vazifasi quyidagi normada mustahkamlab qo‘yilgan : “ Davlat uzluksiz ta’lim tizimini, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minalaydi. Davlat maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart – sharoitlar yaratadi “. Ushbu konstitutsiyaviy normalar maktabgacha ta’lim – tarbiyadan to oliy ta’limgacha hamda boshqa ta’lim turlarini, shuningdek ,ta’limning kunduzgi, sirtqi, kechki, masofaviy, oilada ta’lim olish, mustaqil ta’lim olish, inklyuziv ta’lim shakllarini tashkil etish va faoliyat yuritishiga imkoniyat yaratilganlagini ifoda qiladi. Bundan tashqari davlat bog‘chalarni qurish, mavjudlarini ta’mirlash, shu jumladan davlat – xususiy sheriklik va xususiy bog‘chalarni ko‘paytirish, yangi bog‘chalarni tashkil etishga imtiyozlar va subsidiyalar berish, pirovardida bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olishni yuz foizga yetkazish choralarini ko‘rishi bilan bog‘liq

mas'uliyatni zimmasiga oladi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimida umumiy o'rta ta'lim markaziy o'rinni egallaydi. Mavjud konstitutsiyaviy qoidaga asosan, davlat bepul umumiy o'rta ta'lim olishni kafolatlashi bilan birga umumiy o'rta ta'limning majburiyligi haqida ham norma belgilangan. Hech kimga sir emaski, so'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim sohasida katta o'zgarishlar, islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangi xalqaro talablarga javob beradigan maktablar qurish, mavjudlarini kapital ta'mirlash, eng zamonaviy o'qitish vositalari bilan jihozlash, maktablarni malakali kadrlar bilan ta'minlash, o'qituvchilarni intellektual salohiyatini oshirishi, moddiy ta'minotini yaxshilash bilan bog'liq sohalarda e'tirof etishga arziydigan qator ijobjiy ishlar amalga oshirildi. Bularning barchasi davlatning ta'lim sohasidagi funksiyalarining ijrosi deb o'ylayman. Zero, intellektual avlod asri bo'lgan 21 – asrda ilm – ma'rifatsiz har qanday jamiyat, iqtisodiyot barqaror rivojiana olmaydi. Shu sababli har bir insonning ta'lim olish huquqini ta'minlash oila, jamiyat va davlatga muayyan majburiyatlarni yuklaydi.

Bundan tashqari O'zbekiston tomonidan imzolangan ko'plab xalqaro hujjalarda umumiy o'rta ta'limning majburiy ekanligi belgilangan. Asosiy qonunimizda umumiy o'rta ta'limning majburiyligini belgilash orqali aholining savodlilik darajasini yuksaltirish asosiy maqsad ekanligini yaqqol ko'rish mumkin. Maktabda o'qitishning majburiy ekanligini bajarmaganlik uchun ma'muriy qonunchiligidan ota – onalarning huquqiy javobgarligi belgilab qo'yilgan. Bundan ko'zlangan maqsad ham umumiy o'rta ta'lim olishga bo'lgan huquqni ta'minlashga to'sqinlik qiluvchi holatlarni bartaraf qilish bilan birga bu ta'limning barcha uchun majburiyligini ta'minlashdir. Umumiy o'rta ta'lim olish orqali ta'lim oluvchilar hayotda o'z o'rilarini topishlari va kelgusida yurt koriga yaraydigan insonlar bo'lib yetishishlari uchun zamin yaratiladi.

Konstitutsiyada insonning ta'lim olish huquqini amalga oshirishida hech qanday tafovutlar, tengsizliklarga yo'l qo'ymaslik maqsadida konstitutsiyada "Har kim ta'lim olish huquqiga ega" degan mazmundagi norma belgilab qo'yilgan. Normaning ma'nosi O'zbekistonda inson va fuqarolarning ta'limiga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish to'liq Konstitutsiyaviy huquqiy asosga ega. Shuningdek, qoidaning mantiqiy davomi sifatida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun ta'lim va tarbiya ta'minlanadi, degan insonparvar norma bilan to'ldirildi. Unga ko'ra, "Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi". Inklyuziv ta'lim orqali mamlakatimizda jismoniy, aqliy sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim olish imkoniyatlari ta'minlanmoqda. Bugungi kunda respublikamizda aqli zaif, kar va zaif eshituvchi, ko'zi ojiz va zaif ko'ruchchi, tayanch a'zolarida nuqsoni bo'lgan 213000dan ortiq bolalar respublikamizda 90 ta ixtisoslashtirilgan maktablarda ta'lim va tarbiya olishmoqda. Bundan tashqari, yengil darajadagi nogironligi bor bolalarning sog'lom

bolalar bilan birgalikda umumta'lim maktablarida ta'lif olishlariga ham alohida e'tibor qaratilyapti.

Inklyuziv ta'limga oid alohida normaning belgilanishi alohida ta'lif ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun jismoniy va aqliy rivojlanishini hisobga olgan holda tashkil etilishiga, ta'lif olish jarayonida ularni biron – bir shaklda kamsitishga yo'l qo'yilmasligiga xizmat qiladi va pirovardida alohida ta'lif ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarning ta'lif olishiga bo'lgan huquqining to'liq amalga oshirilishi ta'minlanadi.

Barcha davrlarda ham ustoz – murabbiylar alohida ehtirom, hurmat – izzatga munosib deb qaralgan. Mamlakatimizda, ayniqsa so'nggi yillarda ustozlarning davlat tomonidan qo'llab – quvvatlanishi, ularning mashaqqatli mehnatlarini tom ma'noda qadr topishini ta'minlashga qaratilgan ijobiy siljishlar amalga oshirildi. O'qituvchilarni jamiyat va davlat rivojining tayanch kuchi sifatida baholanishi barcha ustozlarni birdek quvontirmoqda.

So'nggi yillarda o'qituvchilarni majburiy mehnatdan ozod qilish, ular zimmasiga yuklatilgan har qanday qo'shimcha vazifalardan holi qilishga katta e'tibor qaratilyapti.

Konstitutsiyamiz loyihasi ustida ishlash jarayonida xalqimiz, o'qituvchilarimiz tomonidan kasbiga doir alohida huquqiy normani konstitutsiyaga kiritish borasida juda ko'p takliflar bildirilganligi natijasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52 – moddasiga shunday huquqiy norma kiritildi : “ O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash. Xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi ”.

Bunday huquqiy qoidaning konstitutsiyaga kiritilishidan qanday maqsad ko'zlandi? Ushbu masalada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev “ ... muallimning obro‘ – e'tibori – bu avvalo millatning, butun xalqning obro‘ – e'tibori ekanligi”ni e'tirof etib, Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan o'tkazilgan uchrashuvda ustozga bo'lgan yuksak ehtirom Konstitutsiyamizda o'z ifodasini topishi zarurligi haqidagi taklifni bergen edi.

Shu bois asosiy qonunimizga shu huquqiy qoida mustahkamlab qo'yildi.

Jamiyatni inson, insonni esa ta'lif va tarbiya o'zgartiradi. Millat va xalqning rivoji, uning intellektual salohiyatini oshirish , avvalombor o'qituvchilar faoliyatiga bog'liq. Zero, o'qituvchi ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan ilm – fan sir – asrorlari, ma'naviy va madaniy merosni yoshlarga yetkazishda muhim bo'g'in hisoblanadi. Shu bois ham o'qituvchilarni hech ikkalanmay “ mamlakatimiz kelajagining bunyodkorlari “ deb atashimiz mumkin. Baski, yurtimiz taraqqiyoti ilmlni yoshlar qo'lida ekan, ularga ilm va fan sirlarini o'rgatayotgan ustozlar, o'qituvchi va murabbiylarga g'amxo'rlik ko'rsatilishi, qadrlanishi xalqimizga xos odamiylikning

yaqqol namunasidir. Shuning uchun yuqorida keltirilgan moddaning ikkinchi qismida : “Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr – qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi “-, degan mazmundagi qoida belgilab qo‘yildi.

Ustozlar qadri yuksalgan yurt, albatta barqaror rivojlanadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda o‘qituvchilar kasbining maqomi va obro‘sini ko‘tarish, muallim va ustozlarning qadri, sha’ni va g‘ururini tiklash, ularning moddiy va ijtimoiy qo‘llab – quvvatlanishini ta’minalash. Samarali mehnat faoliyati uchun munosib sharoitlar yaratilmoqda.Olis hududlarga borib ishlayotgan o‘qituvchilar, xorijiy tillarni o‘zlashtirib belgilangan sertifikatlarga ega bo‘lgan o‘qituvchilarga ustamalar to‘lab berilayotganligi fikrimizning tasdig‘idir.

Mazkur huquqiy qoida kelgusida ustoz va murabbiylarning huquq va manfaatlarini ta’minalash, sha’ni va qadr – qimmatini himoyalashga xizmat qilishiga ishonaman.

Amaldagi Konstitutsiyamiz mamlakatimizda barcha sohalarda qonun ustuvorliginni ta’minalashning huquqiy asosi vazifasini bajarmoqda. Barcha qonun hujjatlari uning normalari asosida yaratilar ekan, albatta huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilishni ko‘zlaydi. Zero, Konstitutsiyamizda belgilanganidek, “ O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning xayoti, erkinligi, sha’ni, qadr – qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi “.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. “Adolat “ milliy huquqiy axborot markazi. Toshkent – 2023
2. O‘zbekiston Respublikasining “ Ta’lim to‘g‘risida” gi qonuni.
3. Yangilanayotgan Konstitutsiya 100 savolga 100 javob. “Adolat ” milliy huquqiy axborot markazi. Toshkent – 2023
4. O.T.Xusanov Konstitutsiyaviy huquq . Toshkent “ Ilm ziyo “ - 2011